“Neft-gaz va kimyo sanoatining barqaror rivojlanishi hamda ekologik xavfsizligida kolloid kimyoning o‘rni” mavzusidagi anjuman tafsilotlari

10-11-oktyabr kunlari Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo institutida “Neft-gaz va kimyo sanoatining barqaror rivojlanishi hamda ekologik xavfsizligida kolloid kimyoning o‘rni” mavzusidagi anjuman bo‘lib o‘tdi. “Neft-gaz va kimyo sanoatining barqaror rivojlanishi hamda ekologik xavfsizligida kolloid kimyoning o‘rni” mavzusidagi I -xalqaro ilmiy-texnikaviy anjuman akademik K.S. Axmedov tavalludining 110 yilligiga bag‘ishlandi.







Anjumanning maqsadi - kolloid kimyo sohasida bilim va tajriba almashinuvini rivojlantirish va turli sanoat sohalarida qo‘llashdir. Anjuman nazariyadan amaliyotga o‘tish mavzularini qamrab oladi va muhim jihat - kolloid kimyo va kimyoviy texnologiya sohasida fan va amaliyot o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashdir. Ishtirokchilar dolzarb masalalarni muhokama qilishlari, tadqiqotlar natijalarini muhokamasi hamda kelgusi hamkorlik qilishning yangi yo‘llarini topishlari mumkin.

Tadbirda akademik K.S. Axmedovning olib borgan ilmiy izlanishlarini davomi va uning ilmiy maktabi to‘g‘risida ma’ruzalar tinglandi.

Kolloid kimyo sohasidagi yetuk mutaxassis, ko‘plab shogirdlar yetishtirgan buyuk ustoz, butun umrini nafaqat O‘zbekiston, balki, O‘rta Osiyoda kolloid kimyo va uning rivojlanishiga bag‘ishlagan zabardast olim, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, O‘zbekistonda xizmat korsatgan fan va texnika arbobi, Beruniy nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati, xamda «El-yurt hurmati» ordeni sohibi Karim Sodiqovich

Axmedov ilm-fanning rivojlanishi uchun kimyo faniga xizmati singgan ko‘plab ilmiy ishlanmalari va ixtiro patentlari orqali o‘zidan yirik meros qoldirgan fazilatli inson edilar.

Bugun ular tomonidan yozilgan darsliklar talabalar uchun o‘quv qo‘llanma, ishlab chiqarilgan preparatlar esa sanoat korxonalari uchun muhim ishlanma bo‘lib xizmat qilmoqda. K.S.Axmedovning asosiy tadqiqot yo‘nalishlari polimerlar fizik-kimyosi va kolloid kimyo bo‘lib bunda, olim o‘z umrini tabiiy mineral moddalarning polidispers suspenziyalarining kolloid-elektrokimyoviy xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlagan. Gil suspenziyalarining elektroforetik cho‘kma tezligi va ularning zarralarining kritik potensiali o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnatilishi, bilan bir qatorda O‘zbekiston tabiiy mineral sorbentlarining xossalarini kompleks tadqiq qilib, ularni yaxshilash yo‘llarini taklif etgan.

Karim Sodiqovich Ahmedov 1914-yil 19-fevralda Toshkent shahrida tug‘ilgan. 1929-1931 yillarda pedagogika texnikumida tahsil olgan va o‘qituvchi bo‘lib ishlagan. 1932-yilda O‘rta Osiyo davlat universitetining (hozirgi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti) kimyo fakultetiga o‘qishga kirgan va 1937-yilda uni 1-darajali diplom bilan tamomlagan. Talabalik yillarida matematika va kimyo fanlaridan dars bergan. Universitetni bitirgach, aspiranturaga yo‘llangan va 1941 yilda mineral moddalar suvli suspenziyalarini elektroforetik yotqizish mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

1941-1943 yillarda Ulug‘ Vatan urushida polkning kimyo xizmati boshlig‘i sifatida ishtirok etgan, ikki marta og‘ir jarohat olgan. Frontdan qaytgach, 1943 yilda dotsent bo‘lgan, 1952 yildan esa O‘ODUda kolloid kimyo kafedrasi mudiri lavozimiga tayinlangan. 1958 yilda yuqori molekulyar zanjirlarning o‘zaro ta’siriga suyuqlik va haroratning ta’sirini o‘rganish bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan va bu ilmiy yo‘nalish suvda eruvchan polielektrolitlar hamda yuza faol moddalar sintezining asosini tashkil etgan.

1959-yildan kimyo fanlari doktori, 1960-yildan professor. 1962 yilda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasida correspondent a’zo, 1966-yilda esa akademik etib saylangan. 1965-yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi kimyo instituti direktori, 1968-yilda esa fan va texnika sohasida xizmat ko‘rsatgan arbob unvonini olgan. 1972-1988 yillarda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent politeknika instituti rektori bo‘lgan va ToshDUda kolloid kimyo kafedrasini boshqargan. 1973 yilda Toshkent politeknika institutida kolloid kimyo kafedrasini tashkil qilgan.

1958--yilda K.S.Ahmedov kolloid kimyo laboratoriyasini, keyinchalik O‘zbekiston FAning kimyo institutida (hozirgi O‘zbekiston Fanlar akademiyasining IONX) adsorbsiya, yuza faol moddalar, flokulyatsiya va texnologik laboratoriyalarni tashkil qilgan. Bu O‘zbekistonda tarqoq tizimlar va yuza hodisalarining fizik-kimyoviy taraqqiyotida muhim qadam bo‘lgan. Telomerizatsiya, polimerga o‘xshash o‘zgarishlar, sopolimerizatsiya va xlormetilizatsiya usullaridan foydalangan holda yangi turdagi yuza faol moddalar, oligomerlar, suvda eruvchan polimerlar va polielektrolitlar ishlab chiqilgan.

K.S.Ahmedovning tadqiqotlari keng ko‘lamli masalalarni qamrab olgan. Bentonit va paligorskit gillari kabi tabiiy mineral sorbentlarning fizik-kimyoviy xususiyatlari va ularning suvli dispersiyalardagi kolloid xususiyatlarini o‘rgangan. U tabiiy polimerlarga – jelatin, kraxmal, lignin va selluloza tarkibli materiallarga katta e’tibor qaratgan, ular asosida kollaktivit yirik ko‘zli adsorbenti va gidroliz ishlab chiqarish hamda to‘qimachilik sanoati uchun muhim bo‘lgan suvda eruvchan polielektrolitlar yaratilgan.